

**XANTHIUM STRUMARIUM L. BOTANIK TAVSIF VA DORIVORLIK
XUSUSIYATLARI.****XANTHIUM STRUMARIUM L. БОТАНИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И
ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА.****XANTHIUM STRUMARIUM L. BOTANICAL DESCRIPTION AND
MEDICINAL PROPERTIES.****Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi**

Farg'ona Davlat Universiteti

biologiya yo'nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada *Xanthium strumarium* L. o'simligining dorivorlik va farmologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan. Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan bu o'simlik yallig'lanishga qarshi, antiseptik, fungitsid, og'riq qoldiruvchi va isitmani tushuruvchi ta'sirga ega ekani aniqlangan.

Kalit so'zlar: antiseptik, barg, gul, urug', meva, atsetat, alkaloid, alkaloid fenolik kislota, meva, ildiz, smola, xalq tabobati, dermatoz.

Аннотация

В данной статье представлены сведения о лекарственных и фармакологических свойствах, а также о химическом составе растения *Xanthium strumarium* L. Это растение, широко применяемое в народной медицине, обладает противовоспалительным, антисептическим, фунгицидным, обезболивающим и жаропонижающим действием.

Ключевые слова: антисептик, лист, цветок, семя, плод, ацетат, алкалоид, фенольная кислота, корень, смола, народная медицина, дерматоз.

Annotation

This article provides information about the medicinal and pharmacological properties, as well as the chemical composition of *Xanthium strumarium* L. This plant, widely used in folk medicine, has been found to exhibit anti-inflammatory, antiseptic, fungicidal, analgesic, and antipyretic effects.

Keywords: antiseptic, leaf, flower, seed, fruit, acetate, alkaloid, phenolic acid, root, resin, folk medicine, dermatosis.

BOTANIK TAVSIF

Xanthium strumarium L. (Qo‘ytikan) Asteraceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik bo‘lib, balandligi 70-100 sm gacha yetadi. Uning tana qismi ko‘p tarmoqlangan, qo‘ng‘ir yoki qizg‘ish-qizil rangda bo‘lib, ba‘zi joylarida qizil dog‘lar bilan qo‘plangan. Barg-yumaloq yoki uchburchaksimon shaklda, 3-5 yaproqli, tishli qirralarga ega. Barglarning yuqori qismi qo‘ng‘iroqsimon va yopishqoqroq, pastki qismi esa barglari katta, tuklar bilan qoplangan. Gullari mayda va jozibador emas (ko‘rimsiz), jinsiy ajratilgan: erkak gullari yuqorida, urg‘ochi gullari esa pastki qismida joylashgan. Mevalari ilmoqsimonlar tikanlar bilan qoplangan bir shaklida bo‘lib, ular suv orqali yoki hayvonlarning tukiga yopishib tarqaladi(1-rasm).



1-rasm. O‘simlikning umumiy ko‘rinishi

KIMYOVIY TARKIBI

Fitokimyoviy tahlillar natijasida *Xanthium strumarium* L. tarkibida 170 dan ortiq turli kimyoviy birikmalar aniqlangan. Bular orasida laktonlar, fenolik kislotalar, glikozidlar, alkaloidlar va yog‘ kislotalari mavjud. Qo‘ytikanning kimyoviy tarkibi yaxshi o‘rganilmagan bo‘lsa-da, urug‘ida yod, alkaloidlar va askorbin kislotasi (tahminan 32 mg%) mavjudligi aniqlangan. Urug‘lari yog‘li moylar, smola va ksantistrumarin glikozidiga boy bo‘lib, bu moddalar uning shifobaxsh xususiyatlarini ta‘minlaydi. Barglardan olingan efir moyida 34 ta uchuvchan birikmalar mavjud bo‘lib,

ularning umumiy miqdori 98.96% ni tashkil etadi. Asosiy komponentlar quyidagilardir:

cis- β -guaiene – 34.2%, limonene – 20.3%, borneol – 11.6% shuningdek, bornil asetat (4.5%), β -kubeben (3.8%) va sabinene (3.6%) ham aniqlangan.

DORIVORLIK XUSUSIYATI

Antiseptik va yallig‘lanishga qarshi ta’siri: Qo‘ytikanning barglari va mevalaridan tayyorlangan nastoyka teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. O‘simlik xalq tabobatida qalqonsimon bez kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Preparat antiseptik, fungitsid, yallig‘lanishga qarshi, kam darajada og‘riq qoldiruvchi, terlatuvchi va isitma tushuruvchi ta’sirga ega. Diareya, dizenteriya va siydik pufagining yallig‘lanish jarayonlarida barglar, gullar va mevalaridan tayyorlangan (ba’zan ildizlar) damlamasi ichiladi. 1 osh qoshiq maydalanen qo‘ytikan o‘tini 1 stakan qaynoq suvda 10 daqiqa qaynatiladi. Kunga 4–6 marta 1/4 stakan ichiladi. Qo‘ytikan damlamasi kuydiruvchi ta’mgga ega, shuning uchun uni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Qo‘ytikan bargini sharbatini astma, tomoqlar spazmlarida va bivosilda kasalliklarida ishlatiladi. Skrofulyez, teri saratoni, lishay, ekzema, xusnbuzarlar, toshmalar va terining zamburug‘ kasalliklarida o‘simlikning damlamasi yoki yangi siqilgan sharbati tashqi vosita sifatida ishlatiladi.

Xitoy xalq tabobati shamollash, qalqonsimon bez kasalliklarida, surunkali pielonefritni davolashda o‘simlikning turli preparatlaridan foydalanadi. Qo‘ytikan yangi mevalari va urug‘lari maydalanadi so‘ngra ekzema, qichish bilan kechadigan dermatoz, hasharotlar chaqishi, lishay va qichima kasalliklarida teriga surtiladi. O‘simlikning quritilgan mevalarini malhami terining zamburug‘ kasalliklarida ishlatiladi.

XULOSA

Xanthium strumarium L. o‘simligi o‘zining boy kimyoviy tarkibi va dorivor xususiyatlari bilan e’tiborga molikdir. Biroq, uning toksik xususiyatlarini inobatga olib, foydalanishda ehtiyotkorlik va ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Kelgusida qo‘ytikan o‘simligining kimyoviy tarkibi va farmakologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish,

uning xavfsiz va samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xudoyberdiyev, A. (2020). Yem-xashak yetishtirish. Toshkent: O'zbekiston Davlat Noshirligi
- 2.Safarova Mohiniso Zafarovna, Eshkaraev Sadridin Choriyevich (2023). Qo'ytikan (Xanthium-Strumarium-L) o'simligidan kimyoviy moddalarni ajratib olish istiqbollari.
- 3.Kamboj A, Saluja (2010). Phytopharmacological review of Xanthium strumarium L.(Cocklebur).
4. Scherer, R., & Godoy, H. T. (2014). Effects of extraction methods of phenolic compounds from Xanthium strumarium L. and their antioxidant activity.